

TOXTIYEV Shuxrat Rustamovich,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi
IRCICA kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: shuhrat55567@mail.ru

ISHQ KUYNCHISI HOFIZ SHEROZIYNING G'AZALLARIDA MAVZULAR SILSILASI VA BADIY MAHORAT MASALASI

ТЕМАТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО В ГАЗЕЛЯХ ХАФИЗА ШИРАЗИ

THEMATIC STRUCTURE AND ARTISTRY IN THE GHAZALS OF HAFIZ SHIRAZI

Annotatsiya. Mazkur ishda fors-tojik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Hofiz Sheroziyning g'azallarida uchraydigan mavzular silsilasi hamda shoirning badiiy mahorati yoritiladi. G'azallarda muhabbat, ilohiy ishq, tasavvufiy g'oyalar, hayot va umr o'tkinchiligi singari mavzular keng qamrab olingan. Tadqiqotda Hofizning obrazlar yaratishdagi san'atkoronaligi, so'z o'yini, tashbeh va kinoyalardan foydalanish uslubi tahlil qilinadi. Shuningdek, g'azal janri doirasida shoirning o'ziga xos uslubi va mumtoz she'riyatdagi o'rni ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: G'azal janri xususiyatlari, Hofiz Sheroziy she'riyati, Ishaq va ma'naviyat uyg'unligi, Badiiy mahorat va san'atkorlik uslubi, Tasavvufiy obrazlar va ramziy ma'nola, G'azal mavzularining silsilasi, So'z ohangi va musiqiylik, She'rda metafora va istiora, Hofiz g'azallarining mazmuniy boyligi, Sharq adabiyotida Hofiz o'rni.

Аннотация. Статья посвящена анализу тематического многообразия и поэтического мастерства в газелях Хафиза Ширази, выдающегося представителя персидско-таджикской литературы. В работе исследуется широкий спектр тем его лирики — от земной любви до божественной страсти, суфийских мотивов и философских размышлений о бытии. Особое внимание уделяется художественным приемам поэта: виртуозному созданию образов, искусной словесной игре, а также богатству метафор, аллегорий и сравнений. Комплексный анализ этих аспектов позволяет раскрыть уникальность стиля

Хафиза и определить его фундаментальный вклад в развитие жанра газели и классической поэзии в целом.

Ключевые слова: Особенности жанра газели, Поэзия Хафиза Ширази, Единство любви и духовности, Художественное мастерство и стиль, Суфийские образы и символика, Тематическая последовательность газелей, Мелодичность и звучание стиха, Метафора и аллегория в поэзии, Смысловое богатство газелей Хафиза, Роль Хафиза в восточной литературе.

Annotation. This work explores the thematic range and artistic mastery of Hafez Shirazi, one of the prominent figures of Persian-Tajik literature. His ghazals encompass themes such as love, divine passion, Sufi philosophy, and the transience of life. The study analyzes Hafez's poetic skill in crafting vivid imagery, his use of wordplay, metaphors, similes, and allegory. Furthermore, it highlights his unique stylistic approach within the ghazal genre and his significant role in classical poetry.

Keywords: Characteristics of the ghazal genre, Poetry of Hafez of Shiraz, Harmony of love and spirituality, Artistic mastery and stylistic expression, Sufi imagery and symbolic meaning, Thematic sequence of the ghazals, Musicality and lyrical flow, Use of metaphor and allegory, The rich content of Hafez's ghazals, Hafez's place in Eastern literature.

KIRISH

Sharq adabiyotida romantik xususiyatlar taraqqiyotida lirik janrlar katta rol o'ynagan. Bunda birinchi navbatda g'azal janrini ko'rsatish kerak. Garchi g'azal birinchi marotaba arab adabiyotida vujudga kelgan bo'lsa ham, ammo bu janr taraqqiyotiga forsiy shoirlar katta hissa qo'shdilar. G'azal hozirgi va to'la ma'noda fors-tojik adabiyotida shakllandi [3:28].

G'azalning ilk ta'rifini Qays ar-Roziy beradi. U yozadi: "G'azalning lug'aviy ma'nosi ayollar haqida gapirish, ularga nisbatan bizning vujudimizda paydo bo'lgan xushyorlikni va sevgini so'ylab berishdir... G'azal xotin-qizlarga bo'lgan muhabbat va qalbning o'tli intilishi tasviridir" [9:306].

ASOSIY QISM

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ham shunga o'xshash fikr bayon etiladi. Alisher Navoiy avvalo g'azaliyotning g'oyaviy-tematik tomonlariga ko'proq e'tibor beradi. Shoir fikricha,

gʻazalning yetakchi mavzui “dard ila soʻz” (ishq va ishq otashi)dir. “Navoiyning minglab gʻazallarini koʻzdan kechirilganidan soʻng ular uchun eng xarakterli kayfiyat ishqiy hissiyot ekani anglashildi. Hamma sheʼrlarida ishqiy bir uzilish, intizorlik hissi tarannum etiladi. Shoirning yagona ilhom manbai ishqdir” [4:3].

Navoiy garchi gʻazalning mavzui “dard ila soʻz” desa-da, u hayotning hamma masalalari toʻgʻrisida goʻzal gʻazallar bitdi. Uning fikricha, har bir shoir novator boʻlmogʻi, sheʼrning bepoyon bahridan “oliy qadr durlari»ni topmogʻi lozim.

Hindistonda yashagan olim Qabul Muhammad “Haft qulzum” kitobida gʻazal toʻgʻrisida quyidagilarni yozadi: “...Gʻazal lugʻatda xotin-qizlarga muhabbat demakdir, adabiy islohotda esa yagona vazn, qofiyada birlashgan bir necha baytdan iborat sheʼrdir. Bu baytlardan birinchisini musarriʼ bayt deyiladi. Uning misralari oʻzaro qofiyalangan boʻlib, uni matlaʼ va mabdaʼ deyiladi. Agar ikkinchi baytning ham har ikki misrasi qofiyador boʻlsa, zebmatlaʼ va husni matlaʼ deb ataladi. Oxirgi baytni esa maqtaʼ va xotima deb ataydilar. Shart shuki, gʻazalning chegarasi 11 baytdir, baʼzilar 12 bayt, baʼzilar 19 baytgacha boʻladi debdirlar. Ammo baʼzi soʻnggi davr shoirlari 21 baytgacha gʻazal yozganlar, 27 baytli bir gʻazalni ham uchratdik, Lekin gʻazalning chegarasi 19 baytdir. Agar undan ziyoda boʻlsa, uni qasida deb nomlaydilar. Gʻazalda aksar vaqt mahbuba jamoli zikri, sevgili husnining sifatleri hamda ishq kechinmalari beriladi, pand-nasihat sheʼriyatning boshqa turlarida beriladi” [8:44-45].

Qabul Muhammad gʻazal haqida oʻzidan oldingi barcha olimlar aytgan mulohazalarni hisobga olgan, toʻldirgan. Biroq shuni taʼkidlash kerakki, fors-tojik va oʻzbek gʻazaliyotiga diqqat qilsak, gʻazal faqat ishqiy mazmunga ega boʻladi, deb aytilgan gap haqiqatga uncha mos kelmasligi ayon boʻladi.

Gʻazal lirik sheʼriyatda sevgi-muhabbat motivlarini kuylovchi janr sifatida paydo boʻldi. Uning yetakchi mavzui insonning insonga boʻlgan dunyoviy muhabbati, real dunyo goʻzaliga boʻlgan ishq edi. Fors-tojik shoirlari Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy va boshqalarning gʻazallari uchun asosiy mavzu muhabbat boʻldi va bu hol koʻp asrlar mobaynida davom etdi. Shu bilan birga gʻazalga asta-sekin ijtimoiy hayot voqealari va unga boʻlgan munosabat elementlari kirib kela boshladi.

Natijada Saʼdiy va Hofiz gʻazaliyotlarida yangi mavzu, yangi gʻoya va obrazlar paydo boʻldi. Alisher Navoiy oʻzining “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida bu janrning haqiqiy ixtirochisi (“Gʻazal tavri muxtaridur”) deb Saʼdiy Sheroziyni hisoblagan va, umuman fors-tojik gʻazalnavislaridan, ayniqsa, Hofiz, Xusrav Dehlaviy va Jomiyga, oʻzbek shoirlaridan Lutfiyga yuqori baho beradi” [1:200].

Hofiz adabiy merosining asosiy qismini gʻazallar tashkil qiladi, Fors sheʼriyati tarixida gʻazal shakli X-XI asrlarda maʼlum edi. Ammo bu shakl fors adabiyotida faqat Muslihuddin Saʼdiy ijodida ravnaq topib, mustaqil janr darajasiga yetkazildi.

“Hofiz ijodida gʻazal shakli yana ham toʻlaroq kamol topib, shunday yuksaklikka koʻtarildiki, unga na Hofizdan ilgari va na undan keyin oʻtgan shoirlarning birontasi erisha olmadi desak mubolagʻa boʻlmaydi” [5:11]. Hofiz oʻz gʻazallariga hayot va unga muhabbat, may va shodlik, tabiatning goʻzal tasviri, pand-nasihat, adolatsiz qurilgan hayot va undan shikoyat, baxt va baxtli zamon singari mutariqqiy gʻoya va mavzularni, faylasuf, rind, zolim shoh, riyokor shayx, voiz kabi yangi obrazlarni olib kirdi. Ulugʻ sanʼatkor oʻzining joʻshqin fikrlarini ifodalash uchun gʻazal shaklidan, uning ayrim xususiyatlaridan nihoyat ustalik bilan foydalandi.

Oʻrta asr Sharq adabiyotida ishq mavzusining juda katta, hatto markaziy oʻrin tutganligi gʻoyat xarakterlidir. Hofiz ham ishq mavzui orqali butun hayot karitinasini, butun olam falsafasini aks ettirishga intilgan va bu narsa uning lirik gʻazallarida yaqqol koʻzga tashlanadi. U oʻz davri sheʼriyatida shunday bir dunyo yaratdiki, u obʼyektiv dunyodan ancha farq qiladi. Bu shoirning hayolidagi dunyo. Bunda asosan oshiq va maʼshuqlargina mavjud boʻlib, ular koʻp vaqt oʻz intim tuygʻulari bilan, ishqiy kechinmalari bilangina yashaydilar. Bu xayoliy olam bilan real dunyo oʻrtasidagi oʻxshashlik shundaki, bunda ham insof va adolat yoʻq. Oshiq chin koʻngildan sevadi, maʼshuqa esa oʻziga butunlay nomunosib odamlar bilan birga. Natijada oshiq doim rashk oʻtida yonib, azob-uqubatda. U oʻzini devor va toshlarga uradi, daryo-daryo koʻz yoshlar toʻkadi, tinimsiz afgʻon chekadi, taʼna toshlarini otadi, zorlanadi, norozilik bildiradi, lekin hech qayerdan najot yoʻq. Ana shunday tasvirlar tufayli bunday

lirik she'rlar ijtimoiy mazmun kasb etadi. Chunki bu ijtimoiy norozilikning lirik ifodasidir.

Oshiqning ichki kechinmalari tasvirida Hofiz so'z san'atini juda yuqori ko'taradi, g'oyat emosional lirik kartinalar yaratadi, badiiy tasavvurning chegaralar naqadar kengligini namoyish etadi. Shu bilan birga, avvalo xuddi ana shu oshiq obrazi ideal xarakterga ega ekanligi, real hayotda bunday kishilarning ko'plarining uchramasligi, bu obrazda sub'yektiv tomonlarning kuchliligi, uning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalarini chuqurligi hamda yuksakligi va hakazolar tufayli Hofiz lirikasi romantik xarakterga ega desak bo'ladi.

Buyuk san'atkor Hofiz ijodida u ilgari surgan haqiqiy sevgi, vafo, do'stlik g'oyalari an'anaviy xarakterga ega, qo'llanilgan obraz va iboralar an'anaviy xususiyatlarni to'la xarakterlab bera oladi. Masalan, Hofiz bir g'azalining matlaida yozadi:

Maro chashmast xun afshon zi chashmi on kamon obro',

Jahon pur fitna mebinam az on chashmu az on obro' [10:456].

Bunda sevgilini kamon qosh deb ta'riflash, uning ko'zining chiroyli bo'lishi tufayli oshiq ko'zining qonga to'lishi ham, uning qoshi va ko'zi tufayli jahonni fitna bosishi ham an'anaviy tasvirdir.

Hofizning mashhur baytlaridan biri:

Agar on turki sherozi ba dast orad dili maro,

Ba holi hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo [10:33]

da shoirning lirik qahramoni qalb tuyg'ularidan kelib chiqib, eng yuksak narsa – Sheraz jononining javoban sevgisini orzu qiladi. U sevgini ochiq ko'ngil bilan, hamma narsadan voz kechgan holda izhor etmoqda. U sevgilisini bir dona qora xoli uchun o'sha davrning eng go'zal shaharlari – Samarqand va Buxoroni berib yuborishga tayyor. Lekin uning sevgisi yetishib bo'lmaydigan sevgi, ideal sevgi. Shuning uchun tasvirdagi an'anaviy belgilar bilan bir qatorda lirik qahramonning maqsad va intilishlari, his-tuyg'ulari va iztiroblari ham an'anaviy romantik xarakterga ega.

Hofizning ishqiy g'azallarida realistlik misra va detallarni ham uchratish mumkin. Masalan, u ishqiy g'azallarining birida she'r o'rtasida yorga yoki soqiyga emas, shayxga murojaat etib bir baytda deydi:

Biyo, ey shayx, dar xumxonai mo,

Sharobe xo'r, ki dar kavsar naboshad [10:173].

Mazmuni:

Ey shayx, bizning xumxonamizga kelgin-da, Sharob ichki, u jannatda bo'lmaydi.

She'r orasidagi stilistik jihatdan tasodifiy bu bayt ishqiy romantik misralar orasidagi realistlik – satirik xarakterdagi bayt bo'lib, shayxni va uning diniy qarashlarini bildirishga qaratilgan. Boshqa bir g'azalini ham Hofiz quyidagi bayt bilan boshlaydi:

Voizon ke-in jilva mehrobu minbar mekunand,

Chun ba xilvat meravand, on kori digar mekunand [10:261].

Mazmuni:

Masjidning mehrob va minbarida jilva qilayotgan voizlar

Xilvatga borganlarida boshqa ishlarni qilishadilar.

Bunday baytlar real mazmunga ega bo'lib, hayotda ularning aniq shaxslarga qaratilganligini bilamiz. Bu xil baytlarni Hofiz g'azallaridan juda ko'plab keltirish mumkin. I.S.Braginskiy o'zining "Sharq adabiyotlaridagi realistlik an'analar haqida mulohazalar" nomli maqolasida ba'zi olimlarning go'yo Sharqning o'ziga xos qalbi bo'lib, unga real voqelik yotligi, unga mistik hissiyotlar xosligi haqidagi fikrlarini rad etadi va Sharq xalqlari adabiyotidagi realistlik an'analarni ko'rsatishga, ulardagi hayotiy haqqoniylikni isbotlashga xarakterli misollarni keltiradi [7:7-10]. Shu jumladan u Hofiz lirikasi ham faqat "gulu bulbul", "sham'u parvona" haqida emasligini, Hofiz o'z lirikasida "insonning jonli his-tuyg'ularini, lirik qahramonning hayotiy obrazini chuqur va haqqoniy" aks ettira bilganligini, lekin ularning she'rlari "G'arb realistlik she'rlari" tipida emasligini alohida ta'kidlaydi [2:54].

Hofizning olamshumul ulug'ligi shundaki, u o'zining ishqiy g'azallarida faqat an'anaviy tarzda o'z hissiyotlari, mahbubaning ideal go'zalligini kuylash bilan zamonaning adolatsizligini qarama-qarshi qo'ygan. U o'z g'azal olamiga chekinganda ham real voqelikni unutmagan, real voqelik bilan ham doimiy aloqada bo'lib, uning ko'rinishlarini, shu voqelikda tug'ilgan ilg'or fikrlarni o'ziga xos shartli usullar, imo-ishoralar va o'ziga xos belgilar bilan aks ettira bilgan. Shuning uchun ham uning lirikasida shartli ravishda ishq mavzusiga asosiy o'rin bergan bo'lsa ham, lekin uning she'rlarida hayot nafasi esadi, real insonga xos ehtiroslar kuylanadi, olijanob tuyg'u va g'oyalar o'z zomonasidagi voqelikning yaramas tomonlariga qarama-qarshi qilib qo'yiladi. Ishq olamidagi

oshiqlarga bo'lgan zulm va nohaq munosabatlar, kamsitish va hakoizolar real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni eslatadi. Shuning uchun ham Hofiz real olamda bo'lgandan ko'ra g'azal olami yaxshiroqligini shunday yozadi:

Dar in zamona rafeqi, ki xoli az xalal ast,
Suroxiyi mayi nobu safina'i g'azal ast [10:90].

Mazmuni:

Bu zamonda g'arazdan xoli bo'lgan o'rtoq
Toza may idishi va g'azal devonidir, xalos.

Hofizning ishqiy g'azallarida insonparvarlik g'oyalari rang-barang shakllarda qalamga olinadi. Haqiqiy insonga xos xususiyatlar kuylanadi:

Zi podshohu gado farig'am bihamdullah;

Gadoi xoki dari do'st podshohi mann ast
[10:66].

Mazmuni:

Podshoh va gadolardan forig'man, xudoga
shukur:

Do'st eshigidagi tuproqqa gadolik mening
podshohligimdir.

Bu, haqiqatdan ham ulug' kamtarlik, insonparvarlik, unga muhabbat bo'lib, inson qadri toptalayotgan bir zamonda g'oyat buyuk ahamiyatga ega edi.

O'rta asr sharoitida so'fiyona g'oyalar majoziy vositalar bilan lirika shaklida ham juda keng kuylangan. Ya.Ripka bu haqida quyidagilarni yozgan edi: "Fors she'riyatida yozilgan narsalarning mazmuni o'sha yozilib qo'ygan ma'noga hech to'g'ri kelmaydi, asosiy fikr pardalangan bo'ladi. G'azalning yoki unga o'xshash turdagi she'rlarning yozilish sabablari, juda kam hollardan qat'iy nazar, noaniq bo'lgani, unga mazmuniga qarab ham buni bilish mumkin emasligi tufayli ishq va may qay vaqtlarda real yoki ko'chma ma'noda metafora va majoz qo'llaganini aniqlash, mashhur va juda ochiq, yorqin uslubda yozuvchi mistiklarni hisobga olmaganida, qiyin va aksar hollarda mumkin emas" [6:85].

Shartlilik bazasida romantik she'riyat so'fiyona she'riyat bilan yondoshib ketgan. Xususan ishqiy mavzudagi g'azallarning real ma'shuqa haqida yozilgani bilan xudo haqida yozilganini hamma o'rinda ham darhol farq qilish qiyin. Ayni vaqtda shartlilik shu darajaga borib yetadiki, yor deganda xudo yoki mahbuba emas, biron do'st, og'ayni ko'zda tutilgan bo'lishi, uning obrazi ma'shuqa obrazi vositasi bilan gavdalanitirilgan bo'lishi ham mumkin.

Ya.Ripkaning Hofizni "eng buyuk fors simvolistlaridan biri" deb xarakterlashi ham bejiz emas. Hofizni majoz va ramziy uslublardan foydalanishiga ko'p vaqt tarixiy sharoit, feodal dispotizm majbur qilar edi, deydi Ripka "Eron adabiyoti tarixi" kitobining "Despotiya va feodalizm ta'siri" degan bobida.

Hofiz, albatta o'zi yashagan davrda Sharqda juda keng tarqalgan tasavvufiy g'oyalardan chetda qolmadi. U vaqtda kishilar orasida ozgina tanilgan, har bir ko'zga ko'ringan odam pirga qo'l berib, murid bo'lishi shart edi. Tasavvuf ta'siri Hofizning bir qator g'azallarida va ayniqsa soqiynomalarida juda kuchlidir.

"Ammo, - deydi Sh.Shomuhamedov, - biz Hofizning turli davrlarda yozilgan besh-o'nta she'riga asoslanib, uni tasavvufga mukkasidan ketgan mistik shoir deb atay olmaymiz" [5:12].

Darhaqiqat, Hofiz g'azallarida "Dayri mug'on", "Xarobat", "Shayx", "So'fiy", "Mayxona", "Piri mug'on" kabi tasavvufiy atamalarni ko'plab uchratamiz. "Hofiz bu so'zlardan va umuman tasavvufiy g'oyalardan o'z dunyoqarashini berkitib ko'rsatish, zamon haqida ochiq-oydin aytish mumkin bo'lmagan fikrlarini misralar orasiga yashirib ketish uchun ham foydalanadi" [5:12-13].

Hofiz g'azallarida tasavvuf ta'siri bo'lishi bilan bir qatorda, ularda g'ayri so'fiylik, shayxlar va ruhoniylarning tekinxo'rlik va riyokorliklarini, johillik va nodonliklarni, tama'girlik va firibgarlikni nihoyatda zo'r ehtiros bilan fosh etgan misralar ham juda ko'p. Masalan, u so'fiylarga qarab:

Haq bandalar ni yo'ldan ozdirmoq uchun

Bu makru riyo xirqasini kiygaysan, -

deydi-da, umuman ulardan yuz o'girishga da'vat etib:

Rindlikda bizni gap-so'z qilishdi,

Eshon va shayxlar – johil va gumroh.

Zohid so'zidan yuz tavba qildik,

Obid ishidan astag'firulloh!

deydi. Shu bilan birga o't yurakli shoir ruhoniylarni ham Hofiz asarlaridan qo'rqish, olov bilan o'ynashmaslikka chaqirib, shunday ogohlantiradi:

Hayiq Hofizdagi o'tli yurakdan,

Qozondek ko'ksi qaynar, ko'nglida g'am!

May mavzusi ham Hofiz uchun, bir tarafdan, zamonga qarshi norozilikni bildirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, qiyin-qistovli zamonda o'zini bir oz unitish, ko'ngliga orom berish uchun lozim edi. Shuning uchun ham shoir ijodida:

Xirqamni garov qo'ygum, bir kosa sharob avlo,

Bema'ni nasihatdan menga mayi nob avlo.
kabi misralarni ko'plab uchratamiz.

Hamma musulmon ulamolari dunyoning sirini ilohiy kuchdan topgan bir vaqtda, Hofiz bunga ishonib bo'lmaydi deb ochiq aytolmasada, bu aqidaga shak keltirib:

Gapir cholg'uchidan, maydan, jahon sirini kam izla,

Yecholmas hech kishi hikmatla bu og'ir muammoni, -

deydi.

Ammo shoir mayxonaga kirib, sharob kayfiga g'arq bo'lib, o'z atrofidagi qonli voqealarga, xalqning og'ir hayotiga, uning fojiali qismatiga befarq qoldi, deb aytolmaymiz. Bu voqealarning hammasi shoirning nozik qalbini ezar, u qattiq qayg'urar, kuchli iztirob chekar edi.

Madoring ketmish, e dil, g'am yukki ostida qolmishsan,

Borib bir kosa may ich, balki bo'lgay dardingga darmon.

Insonparvar shoir mayni xalqning dard-alamini unutish, undan chetlashish uchun ichmaydi. U bir g'azalida so'fiylarni xalq qayg'u-alamidan bexabarlikda ayblab, o'zi xalq tarafida turib:

Qorong'udir kecha, qo'rqinchli mavj, dahshatlidir girdob,

Na bilgay holimizni chetda turgan yukki yengillar.

Kel endi gul sohib haryon, qadah qo'lda o'turgaymiz,

Buzib charx eski tomin, yangi bir tarh ila qurgaymiz.

deydi. Bu baytlardan ochiq-oydin ko'rinib turibdiki, xalq g'azabini tarqoqligi Hofiz ongida o'ziga xos in'ikosini topgan. Hofiz o'zining isyonkor so'zlarini lirik misralar orasiga jo qilgan. Hofiz ijodining leytmotivi joriy tartiblarga qarshi isyon ekanligi, yoki tomoman o'zgacha hayot istagi ekanligi yuqorida keltirilgan misollardan yaqqol ko'rinib turibdi.

XULOSA

Shunday qilib, ishq kuychisi, isyonkor shoir charx kajraftorning qilmishlariga bo'yin egmaydi. Ammo uning ijobiy qahramoni elni o'z orqasidan ergashtirishga qodir bo'lgan tashkilotchi kuch ham emas, albatta, Hofiz o'z zamonasi chegarasidan

uzoq chiqib ketolmaganligi, ishq-muhabbat, may va tasavvufiy mavzularidagi g'azallari bilan haqsizlik va zulmga qarshi alohida kurash yo'lini tutdi. Bu kurashda g'alaba qozonish uchun u qo'lida qurol qilib g'azallarini tutdi. Uning g'azallarini o'qir ekanmiz shoirning mahoratiga qoyil qolishdan boshqa ilojimiz yo'q. Uning ajoyib o'xshatishlar, nodir istoralar, majozlari o'zining yangiligi bilan hayron qoldirsa, xalq qo'shiqlaridagidek tabiiy bir xillik kishining o'z qalbidan chiqayotgandek tuyuladi. Uning she'rlari goh tinch, goh teran va javohirlarga boy daryodek shuuringizga quyilib kelsa, goh o'ynoqi tog' shalolasidek butun fikringizni, butun vujudingizni maftun etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. – T.: O'zdamnashr. 1948.
2. Braginskiy I.S. O vozniknovenii gazeli, Jurnal "Sovetskoye vostokovedeniye". 1958.
3. Mirzoyev A.M. Rudaki i razvitiye gazeli v X-XV. – Dushanbe. Tadjikgosizdat. 1958.
4. Oybek. Navoiy g'azaliyoti. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurnali, 1961, №2.
5. Shomuhamedov Sh. So'z boshi. Hofiz, G'azallar. – T., 1958.
6. Rypka J. Iranische Literaturgeschichte. – Leipzig, 1959.
7. "Sovremenniy Vostok" jurnali, 1958, №9.
8. Qabul Muhammad. Haft qulzum. – Lakhnay, 1230 h., UP qism.
9. Qays ar-Roziy. Al-Mo'jam fi maoiri ash'or ul-Ajam. – Tehron, 1314 h.
10. Hofizi Sherozi. Muntaxabi devon. – Dushanbe. Nashriyoti Davlatii Tojikiston. 1957.